

**ZAMONAVIY BAHOLASH ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFI
O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI**

Nishanova Aziza Mirzaxmadovna
TURAN INTERNATIONAL UNIVERSITY
Maxmudova Muxtasar Abdurahim qizi
TURAN INTERNATIONAL UNIVERSITY
SBT 22-01-guruh talabasi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil bilish faolligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirilgan, boshlang‘ich sinf o‘quv mashg‘ulotlarida zamonaviy baholash usullaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini ochib berilgan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining zamonaviy baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish ayrim usullari ishlab chiqilgan, o‘quvchilarda zamonaviy baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish texnologiyasining didaktik ta‘minoti takomillashtirilgan. Maqolada yana boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zamonaviy baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirishning tashkiliy-didaktik komponenti produktiv, reproduktiv va ijodiy bosqichlarini ta‘limiy faollashtiruvchi ayrim usullar ko‘rsatilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ig‘or metodlaridan namuna keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta‘lim, innovatsiya, innovatsion jarayon, texnologiya, texnik innovatsiya, ta‘lim xizmati, sifat, texnologik xarita.*

Аннотация: *В статье раскрываются педагогические и психологические особенности развития самостоятельной познавательной деятельности учащихся начальной школы, раскрываются дидактические возможности использования современных методов оценки на уроках начальной школы, разрабатываются некоторые методы развития самостоятельной познавательной деятельности учащихся начальной школы средствами современной оценки, совершенствуется дидактическое обеспечение технологии развития самостоятельной познавательной деятельности учащихся средствами современной оценки. В статье также показаны некоторые приемы педагогической активизации продуктивного, репродуктивного и творческого этапов организационно-дидактического компонента развития самостоятельной познавательной деятельности учащихся младших классов средствами современной оценки. Представлен пример использования методики Игоря с учениками начальной школы.*

Ключевые слова: *начальное образование, инновация, инновационный процесс, технология, техническая инновация, образовательная услуга, качество, технологическая карта.*

Abstract: *The article clarifies the pedagogical and psychological features of developing independent cognitive activity of primary school students, reveals the didactic*

possibilities of using modern assessment methods in primary school classes, develops some methods for developing independent cognitive activity of primary school students through modern assessment, improves the didactic support of the technology for developing independent cognitive activity in students through modern assessment. The article also shows some methods for educationally activating the productive, reproductive and creative stages of the organizational and didactic component of developing independent cognitive activity in primary school students through modern assessment. An example of the IGOR method in primary school students is given.

Keywords: *primary education, innovation, innovation process, technology, technical innovation, educational service, quality, technological map.*

KIRISH

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida zamonaviy baholash usullari, vositalari asosida o'quvchilarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirish tajribasidan bugungi kunda samarali foydalanilmoqda. Jumladan, AQSh, Germaniya, Angliya, Niderlandiya, Avstriya, Rossiya kabi davlatlarda zamonaviy baholash orqali o'quvchilarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirish, natijada o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish borasida samaradorlikka erishilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, Yevropa davlatlarida zamonaviy baholash usullari, vositalari asosida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy faoliyatga tayyorlash, shaxsiy rivojlanish strategiyalarini boshlang'ich ta'lim davridan boshlab shakllantirish, olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda sinab ko'rish, axborotlar bilan faol ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida [1] ustuvor yo'nalishlar sifatida o'z aksini topgan. Jahonda ta'limning barcha bosqichlari, xususan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning zamonaviy baholash, mustaqil bilish faolligini rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim dasturlarini tatbiq etishda o'quvchilarda zamonaviy baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda zamonaviy baholashning modifikatsion metodikalarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamonaviy baholash usullari, vositalari orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon mazmunini integratsion yondashuv asosida takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik amaliyotda doimiy a'lo natijalarga erishuvchi o'quvchiga o'qituvchi tomonidan simpatiya hosil bo'ladi. Bu esa o'quvchining bir tomonlama o'zlashtirishga, faqat o'qituvchi talab qilayotgan baholash mezonlariga moslashib o'qishini, topshiriq va vazifalarni bajarishiga olib keladi. O'quvchida nostandart, tanqidiy, atroflicha fikrlash yetarli darajada rivojlanmaydi. Baholashning eng muhim funksiyalaridan biri, o'quvchini muntazam ravishda faollikka undash, o'z ustida ishlash, mustaqil fikrlash, yuqori samaradorlikka erishishi uchun turtki berishidir. Misol tariqasida kommunikativ kompetensiyani olsak, qismkompetensiyalar sifatida o'z hamrohini tinglay olish, so'zlashish odob va me'yorlariga

rioya qilish, virtual muloqot qilish kabilarni keltirish mumkin. Zamonaviy baholash usullarni qo'llash o'quvchilarda: – mustaqil ta'limga motivatsiyani oshirish, ilmiy-ijodiy tadqiqotlar olib borish, o'qiganlarini tengdoshlari o'rtasida muhokama qilish bilan bog'liq ma'naviy ma'rifiy izlanishlar; turli manbalar va global tarmoqdan zarur ma'lumotlarni izlab topish, saralash orqali ma'lumotlar bazasini yaratishga doir axborotlar bilan ishlash; – san'at asarlarini tushunish, ulardan ta'sirlanish, jamiyatdagi odob-axloq me'yorlari, qadriyat, an'analariga e'tiqodli bo'lish kabi milliy va umummadaniy kompetensiyalarni takomillashtirishga xizmat qilishi asoslangan. O'qish fani misolida zamonaviy baholash varaqasi 7-ildavda keltirilgan. Zamonaviy baholash usullarini dars jarayoniga tadbiiq etish o'z faoliyati va harakatini o'zi nazorat qilishning psixologik mexanizmi. U o'z maqsadlari, ularni amalga oshirish imkoniyati, mustaqil faoliyatining natijalarini baholash munosabatlarida namoyon bo'ladi. O'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay bilish, haqiqiy holat bilan o'zining harakatlarini mutanosib ravishda taqqoslash, erishgan yutuqlarini bo'rttirmaslik yoki omadsizlikka uchraganda ruhan tushkunlikka tushmaslik, ya'ni o'zini har qanday holatda nazorat qilish – zamonaviy adekvat baholash deb ataladi. 6-10 yoshli o'quvchilarda o'z-o'ziga adekvat baho berish darajasi o'sib boraveradi [6; 17-18-b]. Hozirgi vaqtda barcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar bilimini nazorat qilishda, shuningdek zamonaviy baholashni amalga oshirishda test usulidan keng foydalaniladi. Test nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar uchun ham foydalidir. Ular test tuzish va uni amalda qo'llash orqali o'zini o'zi, o'zining bilimini, o'zlari saboq berayotgan fan bo'yicha o'quvchilar bilimini nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi. Ixcham tarzda tuzilgan testlar o'rganilayotgan fanning barcha bo'limlari mazmunini o'zida aks ettirishi lozim [7; 130-133-b.]. O'quvchilarning bilimini baholash darsning eng muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning ko'p hollarda bahs-munozaralarga, o'quvchilar noroziligiga sabab bo'lishi padagogik amaliyotda keng uchraydi. Pedagogik kuzatishlar orqali hozirda mavjud quyidagi zamonaviy baholash usullarini keltirib o'qish mumkin:

“Bilimlar daraxti” usuli. orqali o'quvchi o'z bilimiga baho berish bo'yicha tajribalarga ega bo'lib boradi. Bu usulda o'quvchilarning har biriga qurigan daraxt tasviri aks etgan rasmlar taqdim qilinadi. O'qituvchi tomonidan dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokiga ko'ra ularga daraxtning barglari hamda mevalari berib boriladi. Bu esa o'quvchilarni faollashtirishga xizmat qiladi va sinfda raqobat muhitini yaratadi. Mazkur usul zaminida falsafiy haqiqat yotadi, ya'ni “ilmsiz inson – mevasiz daraxt” ekanligi o'quvchilarning fikrlashiga, har bir harakat samarador bo'lishligi bilvosita tushuntiriladi. Qurigan daraxtning tabiatga va atrof-muhitga hech qanday foydasi bo'lmasligi, xuddi shu kabi ilm o'rganmaydigan inson ham jamiyat taraqqiyotiga foyda bermasligi tushuntirib o'tiladi. Dars yakunida o'quvchilar o'z daraxtlarini namoyish etadi. Kimning daraxti mevalari ko'p bo'lsa, shu o'quvchining natijasi yuqori ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu usulni variativ tarzda o'quv yilining choraklarida yoki ota-onalar tomonidan o'z farzandini o'quv faoliyatini nazorat qilish uchun ham tavsiya etiladi.

“Quvnoq alifbo” usuli. Bu usuldan asosan boshlang'ich sinflarda foydalansa ko'proq samara beradi. Mazkur usul o'quv mashg'ulotlarida quyidagi tartibda joriy etiladi: – o'quvchilarga dars davomida ishtirok etgani uchun alifbo harflari berib boriladi; – o'quvchi

harfni o‘zi tanlab oladi; – darsning yakunida o‘quvchi dars davomida yiqqan harflaridan ma’lum bir so‘zni shakllantiradi; – o‘quvchilar o‘zlari tanlagan so‘zni tashkil qiluvchi harflarni dars jarayonidagi faolligi orqali “rag‘bat” sifatida yig‘ib boradi. Bu usul o‘quvchilarning faolligini, zukkoligini oshirishga xizmat qiladi. O‘quvchi o‘zi tanlagan so‘zning barcha harflarini yig‘ish uchun diqqatini oshiradi, faollikka intiladi va berilgan toshiriqlar va savollarni diqqat bilan bajarishga hamda javob berishga intiladi. Faol o‘quvchilarga dars davomida bir qancha so‘zlarni shakllantirishga imkoniyat beriladi. Bu usul o‘quvchilar bilimini tez, oson, xolis va adolatli baholanishini ta’minlaydi. Boshqa tomondan esa o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga yordam beradi. 3-4 sinf o‘quvchilarga ushbu usul orqali o‘zlari egallamoqchi bo‘lgan kasbning harflarini shakllantirish vazifa sifatida qo‘yilsa ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi.

“Ranglar jilosi” usuli. Mazkur usuldan boshlang‘ich sinflarda foydalanilsa samarali natija beradi. Bu usul o‘quv mashg‘ulotida quyidagicha tatbiq etiladi: – o‘quv mashg‘uloti mavzusidan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchiga oq-qora tasvirdagi rasm beriladi; – berilgan topshiriqlar, vazifalarni bajarilishiga qarab o‘quvchiga rasmning bir bo‘lagini bo‘yash uchun ruxsat beriladi; – qaysi o‘quvchi oq-qora rasmni to‘liq rangli qalamda bo‘yab bo‘lgan bo‘lsa, ushbu o‘quvchi a‘lo bahoga loyiq deb topiladi; – bu usul orqali o‘quvchilarning dars davomida faolligini oshirishga, diqqatini dars mavzusiga qaratishga, ularning psixologik holatini ijobiy ruhda ushlab turishga, san’atni sevish, undan ilhomlanish tuyg‘ularini rivojlantirishga erishish mumkin. Olima G.Alimova o‘quvchilarda baholash jarayoni qanday kechishi xususida tadqiqot olib borgan. Tadqiqot ishida har bir kishi o‘z-o‘ziga yaxshi, obyektiv baho berishni istashini, lekin o‘z shaxsiy fazilatlarini qanday anglab tan olishni ko‘pchilik tushunmasligini ta’kidlab o‘tgan. O‘z-o‘ziga baho berish insonning yashab o‘tgan yillarida to‘plangan barcha tushunchalarni xayolan tasavvur etish orqali shakllanadi. Bolalikda inson bahosi miyaga joylanayotganda, o‘zi haqida atrofda gilardan ma’lumot to‘playdi. Agar bola ota-onasidan muhabbat, rag‘bat ko‘rsa, ulg‘ayganda o‘z-o‘ziga yaxshi munosabatda bo‘ladi. Shaxs o‘zini anglashini tashkil qilish tarkiblari (ma’naviy qadriyatlar, nazorat yo‘nalishi, o‘zini baholash, mulohazalari, hissiy holat bahosi, ijtimoiy qoida) bir-birini to‘ldiradi va ularning sifatli mohiyati insonning ijtimoiy faollik nuqtayi nazarini tubdan o‘zgartirishni belgilash barobarida o‘zini anglashning amaldagi funksiyalarining shakllanishini ta’minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

O‘zlashtirishni tashxislash varaqalari ta’limda “qayta aloqa madaniyati”ni oshirib, demokratik tamoyillarga asoslanadi. Bu varaqalar o‘quvchilarga muntazam ravishda o‘quv jarayonining maqsadi, kutilayotgan natijalar va shu orqali erishishi lozim bo‘lgan tayanch kompetensiyalar to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. O‘zlashtirishni tashxislash varaqalarida o‘quvchilar o‘z mustaqil fikrlarini bildirish, turli nuqtayi nazaralarni ifodalash, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yib tasavvur qilish, o‘zgalar fikrini ijobiy qabul qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda muomala madaniyati, o‘zgalar mehnatini qadrlash va e’tirof etish, munosib fikrlar topish va bildirish kabi jihatlarini ham tarbiyalaydi. O‘zlashtirishni tashxislash varaqalari o‘quvchilarning o‘quv-bilish jarayonida xatolarni va xatolardan o‘rganishni targ‘ib

etsa, ota-onalar uchun o‘z farzandini qaysi tomonlama qo‘llab-quvvatlash kerakligi haqida atroflicha ma‘lumot beradi. Baholar orqali esa bunday ma‘lumotlarga ega bo‘lish imkonsiz hisoblanadi. O‘zlashtirishni tashxislash varaqalari ta‘limda “qayta aloqa madaniyati”ni oshirib, demokratik tamoyillarga asoslanadi. Bu varaqalar o‘quvchilarga muntazam ravishda o‘quv jarayonining maqsadi, kutilayotgan natijalar va shu orqali erishishi lozim bo‘lgan tayanch kompetensiyalar to‘g‘risida ma‘lumotlar beradi. Bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. O‘zlashtirishni tashxislash varaqalarida o‘quvchilar o‘z mustaqil fikrlarini bildirish, turli nuqtayi nazaralarni ifodalash, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yib tasavvur qilish, o‘zgalar fikrini ijobiy qabul qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda muomala madaniyati, o‘zgalar mehnatini qadrlash va e‘tirof etish, munosib fikrlar topish va bildirish kabi jihatlarni ham tarbiyalaydi. O‘zlashtirishni tashxislash varaqalari o‘quvchilarning o‘quv-bilish jarayonida xatolarni va xatolardan o‘rganishni targ‘ib etsa, ota-onalar uchun o‘z farzandini qaysi tomonlama qo‘llab-quvvatlash kerakligi haqida atroflicha ma‘lumot beradi. Baholar orqali esa bunday ma‘lumotlarga ega bo‘lish imkonsiz hisoblanadi.

1079 Zamonaviybaholash o‘quvchilarning o‘quv jarayonidan tashqari mustaqil ta‘lim olish jarayoni uchun ham yo‘nalish belgilab olishda “qo‘llanma” vazifasini o‘taydi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, zamonaviybaholash zamonaviyrivojlantirish bilan uzviy va chambarchas bog‘langan bo‘lib, ta‘limiy, tarbiyaviy, ruhiy, motivatsional, individual ahamiyatga ega hisoblanadi. Zamonaviy baholash usullardan biri hisoblanmish o‘zini o‘zi baholash sinfga, jamoadagi o‘qish muhitiga bog‘liq. Bu orqali o‘quvchilar o‘z o‘quv natijalarini va o‘quv jarayonini real baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun zamonaviybaholashga doir texnologiyalar ko‘rib chiqiladi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarni zamonaviybaholashni qo‘llab-quvvatlashni samarali tashkil etish imkonini beradi. Zamonaviy baholash usullardan biri hisoblanmish o‘zini o‘zi baholash sinfdagi o‘quvchini baholashga parallel ravishda amalga oshirilishi, qolaversa o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun ham muhim kompetensiya sifatida qaraladi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z faoliyatini nazorat qilish, reflektiv munosabat bildirish, zamonaviyrivojlantirishni rejalashtirish va o‘rganishni “uzoqni o‘ylab” (sustainability) barqororlashtirishni o‘z ichiga oladi. Sinfdagi o‘quvchini baholash, ya‘ni an‘anaviy baholash jarayonining ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinishga muhtojligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar 1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 80 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-sentyabrdagi “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 07/18/3931/1841-son. 1082

10-Sentyabr, 2026-yil

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.01.2022 y, 06/22/60/0082-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y, 06/19/5712/3034-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 06.04.2017 y., 14 (774)- son.